



искусством (танцевальные программы). Такая интеграция помогает детям видеть взаимосвязь между различными аспектами образования и развивать комплексные знания.

Физическая культура всё больше становится личностно-ориентированной, когда акцент делается на развитии личности ученика, его мотивации и интересах. Учитель должен стремиться не только к тому, чтобы дети выполняли определённые физические упражнения, но и к тому, чтобы они понимали, зачем это нужно и как это может помочь им в жизни. Такой подход помогает повысить уровень вовлечённости учеников и сформировать у них устойчивый интерес к физической активности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Azizov S. V., Azizova R. I., Mahmudjonov A., Tuxtaboyeva N. Sportchilarda o'yin jarayonini yuqori darajada idrok qilish qobiliyatini shakllantirish — intellektual tayyorgarlikning asosiy vazifasi // *Ekonomika i sotsium.* — 2024. — № 9(124). — Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/sportchilarda-o-yin-jarayonini-yuqori-darajada-idrok-qilish-qobiliyatini-shakllantirish-intellektual-tayyorgarlikning-asosiy/pdf> (дата обращения: 20.10.2025).
2. Азизов С. В., Габдуллина А. З. Технология повышения скоростно-силовой подготовленности спринтеров // *Scientific Impulse.* – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 120-124.
3. Азизова Р. И. Развитие креативности у детей младшего школьного возраста посредством подвижных игр. “Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илми тадқиқотлар” журналі. 29 сон, 9–14.
4. Азизова Р. И. Туризм как средство укрепления внутрисемейных отношений и залог создания благоприятных условий для духовного развития детей в семье // *Научный форум: педагогика и психология.* – 2022. – С. 20-23.
5. Азизова Р. СПОРТИВНЫЕ СОРЕВНОВАНИЯ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ И СТАНОВЛЕНИЯ НРАВСТВЕННОГО И ФИЗИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПОДРОСТКОВ // *научный форум: педагогика и психология. Сборник статей по материалам XXXIV международной научно-практической конференции. Том 10 (34).* 2019.
6. Azizova, Rushen Ismoilovna (2019) "PECULIAR FEATURES INHERENT IN COACHING IN WOMEN'S TEAMS," *Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 11 , Article 44.*
7. Азизова Р.И., Федорко М.А. ТЕХНОЛОГИИ, ПОЗВОЛЯЮЩИЕ ЭФФЕКТИВНО РАЗВИТЬ АТАКУЮЩИЕ ДЕЙСТВИЯ БАСКЕТБОЛИСТОВ // *научный форум: педагогика и психология // Сборник статей по материалам LXI международной научно-практической конференции. Том 5(61).* Москва, 2022
8. Азизова, Р. (2025). Трансформация междисциплинарных подходов в преподавании физической культуры. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(9 (Special Issue), 453–457. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/61189>
9. White, D. Modern requirements for PE teachers // *Educational Review.* — 2021. — № 7. — P. 33-40.
10. Иванов, А. Н. Роль учителя физической культуры в современном обществе. — М.: Просвещение, 2021.
11. Østern, A. Physical development through sports // *Nordic Journal of Physical Education.* — 2018. — № 8. — P. 55-63.
12. Müller, K. Psychological benefits of physical activity for children // *Sportpädagogik.* — Berlin: Springer, 2019. — P. 88-96.
13. Schmitt, T. Developing social skills through team sports // *German Journal of Physical Education Research.* — 2019. — № 5. — P. 44-51.
14. Green, S. Discipline and responsibility in physical education // *Journal of Education Research.* — 2020. — № 6. — P. 66-73.
15. Petrov, S. Motor skills development in PE classes // *European Physical Education Journal.* — 2021. — № 7. — P. 55-63.
16. White, D. Preparing children for an active future // *Educational Review.* — 2021. — № 8. — P. 33-40.

AFSUNGA OID BIRLIKLARNING PRAGMATIK VAZIFALARI

Norbekova Gulrux Xusan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti



Annotatsiya. Ushbu maqolada J. K. Rowlingning “Harry Potter” asarlarida qo‘llanilgan afsunlar (spells) nutq akti nazariyasi (J. L. Austin, J. Searle) asosida lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada afsunlarning lokutsion, illokutsion va perlokutsion bosqichlari aniqlanib, ularning kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari yoritilgan. Xususan, “Expelliarmus” va “Avada Kedavra” afsunlari misolida so‘zlovchining illokutsion niyati, tinglovchiga ko‘rsatilgan perlokutsion ta’sir, hamda afsunlarning pragmatik yuklamasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. pragmatika, nutq akti nazariyasi, illokutsiya, perlokutsiya, J. K. Rowling, Harry Potter, afsun, lingvopragmatika, direktiv akt, deklarativ akt.

ENGLISH MAGICAL SPELLS AND THEIR PRAGMATIC FUNCTIONS

Norbekova Gulrux Khusan qizi

PhD student,

Jizzakh State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the spells used in J. K. Rowling’s *Harry Potter* series from a linguo-pragmatic perspective based on the Speech Act Theory (J. L. Austin, J. Searle). The study identifies the locutionary, illocutionary, and perlocutionary stages of spells and explores their communicative and social functions. In particular, the spells *Expelliarmus* and *Avada Kedavra* are examined in terms of the speaker’s illocutionary intent, the perlocutionary effect on the listener, and their overall pragmatic significance.

Keywords: pragmatics, speech act theory, illocution, perlocution, J. K. Rowling, *Harry Potter*, spell, linguo-pragmatics, directive act, declarative act.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ВОЛШЕБНЫХ ЗАКЛИНАНИЙ

Норбекова Гулрух Хусан кизи

Докторант,

Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются заклинания, использованные в произведениях Дж. К. Роулинг о *Гарри Поттере*, с лингвопрагматической точки зрения на основе теории речевых актов (Дж. Л. Остин, Дж. Серль). В работе определены локуторный, иллокуционный и перлокуционный уровни заклинаний, а также раскрыты их коммуникативные и социальные функции. На примере заклинаний *Expelliarmus* и *Avada Kedavra* анализируются иллокуционное намерение говорящего, перлокуционное воздействие на слушающего и прагматическая нагрузка данных единиц.

Ключевые слова: прагматика, теория речевых актов, иллокуция, перлокуция, Дж. К. Роулинг, *Гарри Поттер*, заклинание, лингвопрагматика, директивный акт, декларативный акт.

Ma’lumki, pragmatika - bu til birliklarining foydalanish sharoitini, kontekstual ma’nosini va muloqot jarayonidagi ta’sirini o’rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi. N. M. Vaxtelning izohiga ko’ra, pragmatika tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog’langan bo’lib, uning asosiy vazifasi nutqiy akt (nutq akti) orqali insonlar o’rtasidagi ijtimoiy aloqani izohlashdir [5].

J. L. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi (Speech Act Theory) pragmatikaning markaziy yo’nalishlaridan biridir. Bu nazariyaga ko’ra, har qanday gap faqatgina axborot yetkazmaydi, balki harakat ham bajaradi [6].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning izlanishlariga ko’ra nutq aktining asosiy turlari quyidagilar:

1. Lokutsiya – gapning shakli, ya’ni talaffuzi va tuzilmasi;
2. Illokutsiya – gapning maqsadi (ilova, buyrug’u, so’rov, tabrik va h.k.);
3. Perlokutsiya – gapning tinglovchiga qilgan ta’siri (ishontirish, qo’rqitish, xursand qilish va h.k.).

Bu nazariy asos afsun so‘zlarining tilshunoslik jihatdan o’rganilishi uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Ayniqsa, “Harry Potter” asarlaridagi afsunlar bu klassik nutq aktlarining mantiqiy (lokutsion), ijtimoiy (illokutsion) va psixologik (perlokutsion) jihatlarini o’zida mujassam etgan qiziqarli til birliklaridir.



J. K. Rowling tomonidan yaratilgan “Harry Potter” asarlarida afsonlar (spells) nafaqat fantastik effektlar, balki nutqiy vosita sifatida ham faol ishlatilgan. Har bir afson bu leksik birlik, u o’zining pragmatik yuklamasi orqali belgili bir kommunikativ vazifani bajaradi.

Quyida mashhur afsonlar asosida ularning illokutsion maqsadi, konkret kontekstdagi ta’siri, va nutq aktlari turlari bo’yicha tahlil qilinadi.

1. “Expelliarmus” – qurolsizlantiruvchi afson bo’lib, u “Harry Potter” asarida bir necha bor qo’llanilgan. Masalan, “Harry Potter and Chamber of Secrets” asarida quyidagi vaziyatda ishlatilgan.

“Expelliarmus!” Harry yelled.

Lockhart was blasted backwards off his feet: he flew ten feet into the air and crashed to the floor.

Snape was looking slightly smug [1].

Bu sahna duel klubidagi mashq davomida bo’lib o’tadi, va aynan shu yerda Professor Snape bu afsonni o’rgatadi. Garri bu afsonni Lockhartga qarshi ishlatadi va undan keyin bu afson Garrining himoya afsoni sifatida har doim asosiy vositalaridan biriga aylanadi.

Bu voqea Garrining nutq orqali himoyalash strategiyasining shakllanish nuqtasidir. U keyingi kitoblar davomida aynan “Expelliarmus”ni o’zining asosiy himoya vositasi sifatida qo’llab keladi, bu esa uning sehrgarlik yondashuvida zo’ravonlikdan ko’ra neytrallashtirish ustuvor ekanini ko’rsatadi.

Nutq akti tahliliga ko’ra, lokutsion bosqichda “Expelliarmus” afsoni artikulyatsiya qilinadi, ya’ni og’zaki ifoda vositasi sifatida ro’y beradi. Illokutsion niyatda so’zlovchi (sehrgar) o’z raqibining tayoqchasini (qurolini) tushirib yuborishni ko’zlaydi. Bu harakat orqali u raqibni sehirsiz holatga keltirish, uni zararsizlantirish, ya’ni voqelikda ustunlikni qo’lga kiritishni maqsad qiladi. Perlokutsion natijada esa raqib qurolsizlanadi, ba’zan esa jismonan orqaga uloqtiriladi yoki muvozanatni yo’qotadi. Raqibning sehrlil harakatlari vaqtincha to’xtatiladi, uning tahdidi neytrallanadi.

Nutq akti turi bo’yicha bu afson direktiv akt hisoblanadi. Direktiv aktlarda so’zlovchi tinglovchiga yoki tashqi kuchlarga nisbatan biror harakatni bajarishga turtki beradi. “Expelliarmus” holatida esa bu sehr kuchining bekor qilinishi yoki qurolning (sehrlil tayoqcha) olib qo’yilishi tarzida namoyon bo’ladi. Bunda buyruq yoki majburlov xususiyati yaqqol seziladi.

Pragmatik jihatdan, ushbu afson kuchli illokutsion niyat bilan ajralib turadi. U orqali so’zlovchi faqat o’zini himoya qilmaydi, balki zo’ravonlikni minimallashtiradi. Bu afson zo’ravon kuch o’rniga harakatsizlik (qurolsizlantirish) orqali ijtimoiy va etnik jihatdan maqbul muomala usulini tanlaganligining ko’rsatkichi sifatida ko’riladi. Shuningdek, bu afson ko’pincha duel kontekstida qo’llaniladi, ya’ni u sanksiyalangan va ijtimoiy jihatdan qabul qilingan vosita hisoblanadi.

“Expelliarmus” o’zining instrumental xususiyatga ega nutq aktidir: u vositaviy niyatga asoslangan bo’lib, so’zlovchi muayyan natijani og’zaki ifoda orqali jismoniy reallikda amalga oshirishga erishadi. Bu jihatdan, ushbu afson nafaqat individual himoya vositasi, balki tinchlikparvar yondashuvning til orqali ifodalangan ifodasi sifatida ham qadrlanadi.

“Expelliarmus” afsoni nutq akti nazariyasining klassik direktiv modelini mukammal ifodalaydi. U til orqali kuchli illokutsion niyatni bildiradi, natijasida esa voqelikda real o’zgarish (qurolsizlantirish) yuz beradi. Pragmatik kontekstdagi qo’llanishi uni boshqa afsonlardan ajratib turadi: u tajovuz emas, balki ehtiyotkorlik va mudofaa vositasi sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli, u Garrining sehrgarlik etikasi va kommunikativ strategiyasining ajralmas qismiga aylangan.

2. “Avada Kedavra” – o’ldiruvchi la’nat hisoblanadi. “Harry Potter and the Goblet of Fire” asarida Moody (aslida Barty Crouch Jr.) dars davomida o’quvchilarga taqiqlangan afsonlar (Unforgivable Curses) haqida tushuntirmoqda. U afsonlarni misolda ko’rsatish uchun o’zining “o’rgatilgan” o’rgimchaklari ustida ishlatadi. Shunda u “Avada Kedavra” afsonini aytadi.

Moody raised his wand, pointed it at the spider, and muttered, “Avada Kedavra!”

A flash of green light, a rushing sound, as though a vast, invisible something was soaring through the air — instantly, the spider rolled over onto its back, unmarked, but unmistakably dead [3].

Mazkur afson nutq akti nazariyasi asosida ko’rib chiqilganda, u bir nechta aniq qatlamlardan iborat. Lokutsion jihatdan, “Avada Kedavra” iborasi artikulyatsiya qilinadi, ya’ni u akustik va til birlik sifatida ro’y beradi. Illokutsion bosqichda esa sehrgar juda kuchli niyatni bildiradi, u nishonga olingan mavjudotni hayotdan mahrum qilishni maqsad qiladi. Bu niyat oddiy istak yoki buyruqdan farqli o’laroq, yuksak energiyaga ega illokutsion kuch orqali amalga oshadi. Perlokutsion natijada esa afson ta’sirida jonli mavjudot darhol o’ladi; bu jismoniy shikastsiz, ammo muqarrar o’limdir.



Ushbu afson nutq akti turi bo’yicha deklarativdir. Deklarativ nutq aktlarining xususiyati shundaki, ular til orqali voqelik holatini bevosita o’zgartiradi. “Avada Kedavra” holatida bu o’zgarish jonlidan o’lik shakliga, keskin va ortga qaytmas tarzda sodir bo’ladi.

Pragmatik jihatdan, “Avada Kedavra” afsuni juda murakkab va axloqiy jihatdan og’ir baholanuvchi til aktidir. U yuqori darajadagi illokutsion kuchni talab qiladi, ya’ni bu afsunni har qanday sehrar bajara olmaydi, faqat ichki irodasi kuchli, qat’iy niyatli shaxslar tomonidan qo’llanilishi mumkin. Ushbu afsunni ishlatish jinoyat hisoblanadi va siyosiy-huquqiy tizimda ruxsat etilmagan. Shu sababli, u afsonaviy kuchga ega bo’lishi bilan birga, ijtimoiy va axloqiy jihatdan keskin rad etilgan vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan bu afson bir vaqtning o’zida ijtimoiy, axloqiy va huquqiy chegaralarni buzuvchi aktdir. U nafaqat shaxsga, balki jamiyatdagi qadriyatlarga qarshi qaratilgan bo’lib, har qanday muloqot tamoyillarini inkor etadi. Bu afson vositasida til inson hayotini to’xtatish quroliga aylanadi, bu esa nutqning transformativ kuchi qanchalik xavfli bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi.

“Avada Kedavra” afsuni nutq akti nazariyasining eng keskin va radikal ko’rinishidir. U orqali til nafaqat voqelikni ifodalaydi, balki uni yakunlovchi, qaytmas tarzda o’zgartiruvchi vositaga aylanadi. Shu orqali Rowling o’z asarida tilning sehrli, lekin xavfli kuchini chuqur falsafiy va lingvopragmatik jihatdan yoritib bergan.

“Harry Potter” asaridagi mashhur afsunlarning nutq aktlari tahlili va ularning pragmatik xususiyatlari

Afsun	Nutq akti turi	Illokutsiya	Perlokutsiya	Pragmatik baho
Expelliarmus	Direktiv	Dushmani qurolsizlantirish	Tayoq uchib ketadi	Mudofaa, ehtiyot chorasi
Avada Kedavra	Deklarativ	Hayotni yo’q qilish	Shaxs o’ladi	Jinoyat, maksimal kuch
Lumos	Direktiv	Yorug’lik chiqarishni so’rash	Atrof yoritiladi	Amaliy, vositachilik xususiyatiga ega
Expecto Patronum	Ekspressiv + Direktif	Ruhiy himoya hosil qilish	Patronus chiqadi, dementor qochadi	Ruhiy holatga asoslangan muhofaza
Obliviate	Deklarativ	Xotirani o’chirish	Esdan chiqarish, ongga ta’sir	Manipulyativ, axloqiy jihatdan tortishli
Accio	Direktiv	Narsani chaqirish	Narsa uchib keladi	Masofaviy boshqaruv

“Harry Potter” asaridagi afsunlar bu oddiy sehrli so’zlar emas, balki mazmunli pragmatik birliklardir. Har bir afson nutq akti sifatida tilshunoslikda aniqlangan lokutsion, illokutsion va perlokutsion komponentlarni mujassam etadi. Mazkur leksik birliklar orqali asar o’quvchisi sehrarlar orasidagi ijtimoiy rollar, harakatlarning psixologik turtkilari va kontekstual shartlarni anglab yetadi.

Bu esa badiiy asarni pragmatik jihatdan tahlil qilish orqali nafaqat tilning, balki inson muloqoti, maqsadi va ta’sirining ham chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- Rowling, J.K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. Bloomsbury, 1998.
- Rowling, J.K. Harry Potter and the Deathly Hallows. Bloomsbury, 2007.
- Rowling, J.K. Harry Potter and the Goblet of Fire. Bloomsbury, 2000.
- Rowling, J.K. Harry Potter and the Half-Blood Prince. Bloomsbury, 2005
- Вахтель Н. М. Прагмалингвистика в таблицах и схемах. – 2008. С. 45.
- Остин, Ж.Л. Слово как действие. // Новое в зарубежной лингвистике, вып. 17. Москва: Прогресс, 1986. С. 22–129.
- O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 701-710.
- Tursunov Ramziddin Abdixalil-o’g’li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG’UNLIGI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(4), 324-330.